



SOLIQ MUNOSABATLARI VA IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TAX RELATIONS AND INTERAGENCY INTEGRATION

**¹Ashirov Jamolbek
Shuxrat o'g'li**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliq va soliqqa tortish"
kafedrası mustaqil tadqiqotchisi. **G-mail:** jamol.ashirov@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada soliq munosabatlari va idoralararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, boshqa vazirlik va tashkilotlarning ma'lumotlari asosida soliq hisobotlarini o'z vaqtida va to'g'ri topshirishni ta'minlash, tashqi manba ma'lumotlari orqali soliq to'lovchilarning hisobotlarini to'liq avtomatlashtirish va inson omilini kamaytirish orqali davlat budjetiga tushumlarni oshirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Eng. - This article explores the theoretical and methodological foundations of tax relations and interagency integration. It also addresses issues related to ensuring the timely and accurate submission of tax reports based on data from other ministries and organizations, fully automating taxpayers' reports through external data sources, and increasing state budget revenues by reducing human factors.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *soliq munosabatlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, idoralararo integratsiya, axborot tizimlari.*
❖ *tax relations, information and communication technologies, interdepartmental integration, information systems.*

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida soliq siyosatining samarali mexanizmlarini joriy etish hozirda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, soliq to'lovchilarning raqamli ko'nikmalarini oshirish, raqamli ma'lumotlarni boshqarishda yangi texnologik yechimlarni amaliyotga joriy etish hamda mamlakatda yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirish kabi muammolar mavjud.

"Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasiga muvofiq, O'zbekistonning barcha sohalarda, jumladan, soliq sohasida ham, raqamli transformatsiyani amalga oshirish rejalashtirilgan. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatni raqamli texnologiyalar

asosida yangilash hamda shu orqali iqtisodiyotning samaradorligini, shaffofligini va raqobatbardoshligini oshirishdir. Strategiya doirasida soliq sohasidagi muammolarni hal etish va ularni raqamli transformatsiya jarayoniga integratsiya qilish, nafaqat soliq sohasining, balki butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [1].

Soliq siyosatining samaradorligi ko'p jihatdan turli darajadagi davlat idoralari o'rtasida to'g'ri va uzviy hamkorlik mavjudligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan idoralararo integratsiya - ya'ni davlat soliq xizmati, moliya organlari, bojxona xizmati, banklar, statistika idoralari hamda boshqa tegishli tuzilmalar o'rtasidagi axborot

almashinuvi va operativ hamkorlikning yo'lga qo'yilishi soliq boshqaruvining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat boshqaruv tizimlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'lumotlar bazalarining integratsiyalashuvi va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarining joriy etilishi idoralararo integratsiyaning amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bu esa soliq ma'lumotlarining to'g'riligini, shaffofligini ta'minlash hamda soliq to'lovchilari tomonidan mavjud qarzdorliklarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

R.Musgrave soliq munosabatlarini davlat moliyasi kontekstida tahlil qilib, fiskal siyosatning samaradorligi uchun soliqlar davlatlararo va idoralararo darajada muvofiqlashtirilishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, soliq munosabatlari faqat budjet tushumini emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlashi kerak [5].

J.Stiglitz o'zining "Iqtisodiy davlat" konsepsiyasida soliq siyosatini davlat boshqaruvi va muvofiqlashtirishning asosiy vositasi sifatida ko'radi. U soliqqa tortish tizimining institutsional va metodologik jihatlariga e'tibor qaratadi, ayniqsa ijtimoiy tenglik va ma'lumot almashinuvi jihatlariga urg'u beradi [6].

W.Heller soliq siyosatini iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi kuch sifatida ko'radi va davlat idoralari o'rtasida samarali axborot integratsiyasi soliqlarning to'g'ri va adolatli undirilishiga xizmat qilishini qayd etadi [7].

A. Karimovning izlanishlariga ko'ra, O'zbekistonda soliq idoralari va boshqa davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvi integratsiyasi soliqlarning samarali yig'ilishida muhim ahamiyat kasb etadi. U, xususan, soliq bazasining kengayishi uchun raqamli

transformatsiyani asosiy vosita sifatida ko'rsatadi [8].

D. Ergashev o'z tadqiqotlarida idoralararo integratsiyani soliq boshqaruvida ochiqlik, ishonchlilik va fiskal nazoratni kuchaytiruvchi mexanizm deb ta'riflaydi. U avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali soliq munosabatlarining samaradorligi oshishini nazariy jihatdan asoslaydi [9].

Dunyo miqyosida moliyaviy oqimlarning notekis harakatlanishi sharoitida soliq to'lashdan qochishning turli usullarini izlash holatlari tobora ko'paymoqda. Ko'plab soliq to'lovchilar mavjud qonunchilikdagi kamchiliklardan foydalanib, o'z manfaatlarini ko'zlab turli hududlar o'rtasida aktivlarni ko'chirish orqali soliqlardan qochishga intilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan har yili 100 mlrd. AQSh dollariga teng moliyaviy resurslar noqonuniy ravishda boshqa mamlakatlarga olib chiqmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyot doirasida soliqqa tortish bazasining qisqarishiga va budjet tushumlarning kamayishiga olib kelmoqda [10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq munosabatlarini davlat moliyaviy siyosatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ular quyidagi tamoyillar asosida shakllantiriladi: majburiylik — soliqlar soliq to'lovchilar tomonidan davlatga majburiy tarzda to'lanadi; beryoqlamalik — soliq to'lovchi soliq to'lagani evaziga bevosita xizmat olmaydi; normativlik — soliqlar faqat qonun hujjatlari asosida undiriladi; adolatlilik — soliq yukining aholining moliyaviy ahvoriga mos ravishda

taqsimlanishi. Ushbu tamoyillar soliqqa oid munosabatlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini belgilab beradi hamda soliq siyosatining izchil va shaffof yuritilishini ta'minlaydi.

Soliq munosabatlarining ishtirokchilari – bu ushbu munosabatlarda faol ishtirok etuvchi subyektlar bo'lib, ular uch asosiy guruhga bo'linadi: birinchidan, davlat, ya'ni soliqlarni belgilovchi, yig'uvchi va nazorat qiluvchi asosiy subyekt bo'lib, uning vakolatlarini Soliq qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari amalga oshiradi; ikkinchidan, soliq to'lovchilar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, ular qonunchilikda belgilangan soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash majburiyatiga ega; uchinchidan, vositachilar – auditorlik tashkilotlari, banklar, notariuslar kabi soliqqa oid axborot va xizmatlar bilan ta'minlovchi subyektlar. Ular o'rtasidagi huquq va majburiyatlar Soliq kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2012-yil 30-oktyabrda qarori qabul qilingan. Mazkur qaror soliq tizimida soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishga, shuningdek soliq to'lovchilar uchun ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo'naltirilgan davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish va faoliyat samaradorligini oshirish [2] nazarda tutilgan.

Aynan shu qaror asosida Soliq qo'mitasi boshqa vazirliklar va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasida soliqqa tortish masalalarida, jumladan, aloqa

kanallari orqali elektron axborot almashuvini tashkil etish rasman boshlangan.

Shuningdek, soliq idoralarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasini shakllantirish bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirildi:

birinchi bosqich (2013-yil 1-yanvargacha) – barcha hududiy davlat soliq inspeksiyalarining axborot bazasini markaziy ma'lumotlar bazasiga integratsiyalashtirildi;

ikkinchi bosqich (2015-yil 1-yanvargacha) – soliq to'lovchilar majburiyatlarining paydo bo'lishi (to'xtatilishi) bo'yicha vazirliklar va idoralarning ma'lumotlar bazasini Soliq qo'mitasining ma'lumotlar yagona axborot bazasiga integratsiyalashtirish ishlari amalga oshirildi.

O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari tez sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, soliq tizimi sohasi elektron axborot tizimlarini joriy etishda yetakchi sohalardan biriga aylandi. Biroq, soliq organlarining yagona va to'liq axborotga ega bo'lishi uchun boshqa davlat idoralari bilan uzluksiz va avtomatlashtirilgan axborot almashuvini tashkil etish zarur. Soliq qo'mitasi tomonidan soliq ma'murchiligi raqamlashtirish jadal ravishda ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, dastlabki eng katta qadamlardan biri bu tashqi manba axborot tizimini ishlab chiqilishi hisoblanadi.

Tashqi manba axborot tizimini – bu soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq to'lovchilarning faoliyatini monitoring qilish va o'zaro axborot almashuvini avtomatlashtirish maqsadida yaratiladigan kompleks axborot tizimidir.

Tizimni ishlab chiqish maqsadi:

- Soliq qo'mitasining boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan real vaqt rejimida ma'lumot almashuvini yo'lga qo'yish;

- Soliq to'lovchilar haqidagi to'liq, aniq va tasdiqlangan ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

- Soliqdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlashda tahliliy vositalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

- Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali inson omilini kamaytirish ba boshqa turli maqsadlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu axborot tizimi ishlab chiqish soliq tizimida bir qancha samarali natijalar ko'rsatildi. Jumladan, soliq nazoratining aniqligi va tezkorligi oshdi, soliq to'lovchilarning faoliyati to'liq monitoring qilina boshlandi, soliqdan bo'yin tovlash holatlarini tezda aniqlash imkonini berdi, inson omiliga bog'liq xatoliklar kamaydi va asosan yashirin iqtisodiyot hajmi qisqarishida muhim o'rin egallamoqda.

Bugungi kunda Soliq qo'mitasi tomonidan integratsiya qilingan vazirlik va idoralar soni 71 tani tashkil qiladi. Mazkur vazirlik tashkilotlar bilan 378 ta yo'nalishda o'zaro ma'lumot almashish yo'lga qo'yilgan. Idoralararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslariga nazar soladigan bo'lgan bir qancha qonun va qarorlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yildagi PQ-4389-son qarori ijrosi yuzasidan, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda buxgalteriya hisobini amalga oshirish hamda soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida real vaqt rejimida ma'lumotlar almashish imkonini beradigan, soliq hisobotini topshirish tizimi bilan integratsiya qilingan buxgalteriya hisobining yagona axborot tizimini ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilingan [3].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash

mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 4-sentabrdagi 539-son qarori bilan Soliq qo'mitasi yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazasini yuritish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi. Qaror ijrosi yuzasidan markaziy ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi [4].

Markaziy ma'lumotlar bazasida davlat xizmatlarini ko'rsatish va davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan idoralararo elektron hamkorlik qilish uchun zarur bo'lgan yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar manbai bo'lgan davlat axborot resursi jamlanadi.

Mazkur bazaga turli xil vazirlik tashkilotlardan o'zaro integratsiya orqali ma'lumotlar yig'ilishi ta'minlandi. Markaziy ma'lumotlar bazasi soliq organlarining Yagona integratsiyalashtirilgan axborot-resurs bazasi negizida tashkil etildi va yuritilib kelinmoqda. Markaziy ma'lumotlar bazasi davlat xizmatlarini, jumladan, elektron shaklda ko'rsatish, ularni avtomatlashtirish va ko'rsatish muddatini qisqartirish maqsadida shakllantiriladi hamda yuritiladi. Ushbu baza yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni saqlash va ularni identifikatsiyalash, shuningdek, davlat xizmatlari ko'rsatish hamda idoralararo elektron hamkorlikni ta'minlashda asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, u vakolatli organlarning axborot tizimlarini "Elektron hukumat" tizimining

yagona infratuzilmasiga integratsiya qilish imkonini beradi.

Markaziy ma'lumotlar bazasi vakolatli organlar tomonidan yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun soliq to'lovchining identifikatsiya raqamidan va jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsiya raqamidan foydalangan holda shakllantiriladi va yangilanadi.

Markaziy ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni kiritish va yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazasida saqlanadigan va qayta ishlanadigan ma'lumotlar ro'yxatiga muvofiq ma'lumotlarni kiritish va ularni yangilash uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Markaziy ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lmagan va davlat xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar elektron hukumatning yagona identifikatorlari asosida shakllantirilgan tegishli vakolatli organlarning axborot resurslarida saqlanadi.

Markaziy ma'lumotlar bazasi – bu davlat soliq xizmati organlarining axborot infratuzilmasining markaziy elementi bo'lib, mamlakatdagi barcha soliq to'lovchilar, soliq tushumlari, hisobotlar, moliyaviy operatsiyalar, yuridik va jismoniy shaxslarning

soliq majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona tizimda jamlaydi, saqlaydi va tahlil qiladi.

Hozirgi kunda, Soliq organlarining Markaziy ma'lumotlar bazasidan ochiq portalda foydalanishga ruxsat berilgan. Xulosa qilib aytganda soliq tizimida axborot texnologiyalarini keng joriy etish bu mamlakat soliq siyosatini yuritishda shaffoflik va samaradorlikka erishishning asosiy mezonini hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Soliq munosabatlari va idoralararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslarini chuqur o'rganish ushbu sohada samaradorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va davlat moliyaviy siyosatining izchilligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari asosida davlat idoralari o'rtasida uzviy hamkorlikni tashkil etish soliq tushumlarini barqarorlashtirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, idoralararo integratsiya nafaqat soliq idoralari faoliyatining ochiqqligini va shaffofligini ta'minlaydi, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiluvchi muhim omil sifatida qaralishi lozim. Kelgusida bu yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni. 2020-yil 5-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1843-son qarori. 2012-yil 30-oktabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori. 2019-yil 10-iyul.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 539-son qarori. 2020-yil 4-sentabr.

5. Musgrave R.A. *The Theory of Public Finance*. – New York: McGraw-Hill, 1959. – 628 p.

6. Stiglitz J.E. *Economics of the Public Sector*. – 3rd ed. – New York: W.W. Norton & Company, 2000. – 848 p.

7. Heller W.W. *New Dimensions of Political Economy*. – Cambridge: Harvard University Press, 1966. – 274 p.

8. Karimov A. Soliq siyosatining institutsional asoslari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2021. – №4. – B. 45-52.

9. Ergashev D. Soliq munosabatlarida axborot texnologiyalari va ularning samaradorlikka ta'siri // *Moliyaviy tahlil jurnali*. – 2022. – №3. – B. 34-41.

10. Организация Объединенных Наций. A/HRC/31/61.GE.16-00535 (R), 020216. Окончательное исследование повопросу о незаконных финансовых потоках, правах человека и Повестке дня в области устойчивого развития на период до 2030 года Независимого эксперта по вопросу о последствиях внешней задолженности и других соответствующих международных финансовых обязательств государств для полного осуществления всех прав человека, в частности, экономических, социальных и культурных прав.